

## **“Olmaliq KMK” AJ xodimlari uchun**

### **ESLATMA**

**“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-931-son) 2024-yil 5-iyun kuni qabul qilingan (5 ta bob, 33 ta modda, kuchga kirish sanasi 2024-yil 6-dekabr).**

**Qonunda belgilangan cheklov va qoidalar to‘liq tadbiq etiladigan subyektlar:**

- davlat organlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- davlat muassasalari;
- davlat unitar korxonalari;
- davlat maqsadli jamg‘armalari;
- ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari.

**Qonunning faqat davlat xaridlariga oid bandlari tadbiq etiladigan subyektlar:**

- o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar;
- o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu modda uchinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar.

**Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha mas’ul organ va tuzilmalar:**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi - maxsus vakolatli davlat organi;
- Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar;
- Maxsus bo‘linma (davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari (va) yoki kadrlar bo‘linmalari);
- Odob-ahloq komissiyalari.

**Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha qanday hujjatlar to‘ldiriladi?**

- ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiya to‘ldiriladi;
- mavjud ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabarnoma to‘ldiriladi;
- ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi va mavjud ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reestrida ro‘yxatga olinadi.

**Manfaatlar to‘qnashuvi** — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda

shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik

- **yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi)**  
*yoki*
- **yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi)**  
*vaziyat*

**Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi** — davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud **saylab qo‘yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda** mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan **boshqaruv xodimi**

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga **aloqador shaxslar**:

- davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari);
- davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs;
- davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vakolatlari:**

- manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq axborotni va materiallarni davlat organlari yoki boshqa tashkilotlardan so‘rab oladi va o‘rganadi;
- davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini, shu jumladan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida o‘rganadi;
- manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda, bitimni bekor qilish, qarorni hamda boshqa hujjatni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarga taqdimnama kiritadi yoxud ularni haqiqiy emas deb topish haqida sudga da‘vo kiritadi;
- manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reestri, mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma hamda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini tasdiqlaydi;

- davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar uchun manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni e’lon qiladi;
- manfaatlar to‘qnashuvi natijasida fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning manfaatlariga yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- maxsus bo‘linmalar xodimlarining tizimli ravishda malakasini oshirish hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘qitishni tashkil etadi;
- ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etmaganlik bilan bog‘liq ma’muriy huquqbazarlik haqida bayonnomma tuzadi va uni ko‘rib chiqish uchun sudga yuboradi.

### **“Olmaliq KMK” AJ vakolatlari:**

- xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabardor qilish tizimini tashkil etadi;
- ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini o‘zining rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o‘zgartiradi yoki bekor qiladi;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitimlarni o‘zgartiradi yoki bekor qiladi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida belgilangan tartibda sudga da’vo bilan murojaat etadi;
- odob-axloq komissiyalari va maxsus bo‘linmalarining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha faoliyatini tashkil etadi;
- “Olmaliq KMK” AJda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha ichki idoraviy tartibni belgilaydi;
- aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiyalari tomonidan ko‘rib chiqilishini ta‘minlaydi;
- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishda o‘rnak bo‘layotgan xodimlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘radi;
- manfaatlar to‘qnashuvi natijasida fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini ta‘minlash, shuningdek aholining **“Olmaliq KMK” AJga** bo‘lgan ishonchini tiklash choralarini ko‘radi.

### **Odob-axloq komissiyasi:**

- **“Olmaliq KMK” AJ** xodimi tomonidan ushbu Qonunda belgilangan talablarga rioya etilishini ta‘minlash choralarini ko‘radi;

- manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko‘rilayotgan choralarning yetarliligi (to‘g‘riliqi) haqidagi masalalarini ko‘rib chiqadi;
- mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq hollar ustidan kollegial nazoratni amalga oshiradi;
- ushbu Qonunda belgilangan talablarning “**Olmaliq KMK**” AJ xodimlari tomonidan buzilishlari mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra xulosa chiqaradi;
- manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar qilmagan, bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida “**Olmaliq KMK**” AJ rahbariga taklif kiritadi.

**Maxsus bo‘linma:**

- “**Olmaliq KMK**” AJ xodimi tomonidan aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollari to‘g‘risidagi axborotni umumlashtiradi;
- “**Olmaliq KMK**” AJning ushbu Qonun talablarini buzgan xodimiga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazadi;
- “**Olmaliq KMK**” AJning xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yuzasidan qonunchilikka muvofiq tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;
- ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar, shuningdek mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani ko‘rib chiqadi, ularning natijalariga ko‘ra odob-axloq komissiyasiga takliflar kiritadi;
- “**Olmaliq KMK**” AJ xodimining manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi xabarlariga ko‘ra manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida xulosa beradi;
- “**Olmaliq KMK**” AJda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tahlil qiladi, ularni tartibga solish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;
- “**Olmaliq KMK**” AJda ushbu Qonun talablariga rioya etilishi holati to‘g‘risidagi har yilgi hisobotlarni tayyorlaydi, hisobotlarning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlaydi.

**“OLMALIQ KMK” AJda manfaatlar to‘qnashuviga duch kelsangiz**

**BIZGA XABAR BERING!**

Call-center (telefon) raqami	Telegram bot	Rasmiy veb-sayt
<b>+998 70 619 51 16</b>	<b>@agmk_bot</b>	<b>agmk.uz</b>